

## **SURXONDARYO O‘ZBEK SHEVALARIGA DOIR AYRIM PAREMALAR TAHLILI**

**Xamidov Mansur Abdumannobovich**

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Erkin tadqiqotchi

Tel: +998990299127

mansurimomali1991@mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Qiziriq tuman aholisi nutqidan yig‘ilgan maqollar tahlilga tortilgan. Mazkur barqaror birliklar (asosan maqollar) guruhlariga ajratilib, leksikografik material sifatida nutqda qo‘llanilishiga ko‘ra qiyosiy tasniflandi. Mazkur tasnif lug‘at hamda korpus bazasida kerakli maqolga murojaatni osonlashtirib, tushunarli talqinga yo‘naltiradi. Jumladan, maqolada adabiy tilda ishlatiluvchi (izohli lug‘atlarga kiritilgan) maqollar bilan mahalliy shevada qo‘llanuvchi maqollar taqqoslandi, ularning o‘xshash va farqli jihatlariga lingvistik sharh berildi.*

**Kalit so‘zlar:** *qipchoq lahjasining janubiy o‘zbek “j”lovchilar guruhi, “y”lovchi o‘zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar) hamda ikki tilda so‘zlovchi shevalarda barqaror birliklar.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes articles collected from the speeches of residents of the Kyzirik district of the Surkhandarya region. These stable units (mainly proverbs) were divided into groups and comparatively classified according to their use in speech as lexicographic material. This classification makes it easier to refer to the required article in the dictionary and corpus database and leads to a clearer interpretation. In particular, the article compares articles used in literary language (included in annotated dictionaries) with articles used in local dialects, and gives linguistic explanations of their similarities and differences.*

**Keywords:** *group of southern Uzbek “j” dialects of the Kipchak dialect, Uzbek dialects of the “y” dialect (dialects of the Qarluq dialect) and stable units in bilingual dialects.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируются статьи, собранные из выступлений жителей Кызырикского района Сурхандарьинской области. Эти устойчивые*

единицы (преимущественно пословицы) были разделены на группы и сравнительно классифицированы по их употреблению в речи в качестве лексикографического материала. Эта классификация облегчает обращение к нужной статье в словаре и корпусной базе данных и направляет ее к однозначному толкованию. В частности, в статье сравниваются паремиологические единицы, употребляемые в литературном языке (входящие в аннотированные словари), с единицами, употребляемыми в местных диалектах, и даются лингвистические пояснения их сходства и различия.

**Ключевые слова:** южноузбекская группа «дж»кающих кыпчакского диалекта, узбекские диалекты «у»кающих (диалекты карлукского диалекта) и устойчивые единицы в двуязычных диалектах.

## **KIRISH**

Ma'lumki, shevalarimiz tadqiqi tarixi XX asrning 20-yillariga borib taqaladi va bugungacha davom etib kelmoqda. Negaki shevalarni tadqiq etishga qiziqishning umumiy sabablari til istiqboliga aloqadordir. Biz milliy tilimizni ham adabiy til, ham sheva, ham milliy til ma'nolarida tushunamiz. Adabiy tilning o'ziga xos taraqqiyot bosqichi borligi, shubhasiz, aniq, ammo shevalarimiz, lahjalarimizning taraqqiyoti va rivojlanish masalasi bahslidir.

Sheva tadqiqiga bag'ishlangan ishlar yil sayin zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti soyasida qolib ketayotgani sir emas. Mustaqillik yillarida soha rivojiga xizmat qiluvchi sezilarli tadqiqotlar bajarilgan. Biroq bu tadqiqotlar salmog'i o'zbek shevalarini to'laqonli tekshirishga va ularning lisoniy tabiatini aniqlashga imkon bergani yo'q.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbek tili turkiy tillar orasida eng qadimiy tillardan biri bo'lib, sheva va dialektlarga juda boy til. Har bir viloyat, har bir tuman, har bir qishloqning so'zlashuv uslubi o'zining shevaviy xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. O'zbek tilidagi shevalar va ularning xususiyatlari, tasnifi ustida V.V.Radlov, Ser Ali Lapin, I.I.Yudaxin, Y.D.Polivanov, G'ozi Olim Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, B.To'ychiboyev, B.Hasanov, S.Ibrohimov, A.Ishayev, S.Rahimov kabi bir qator olimlar ilmiy ish olib borishgan. O'rganilmagan sheva va dialektlarimiz, ayniqsa lingvogeografik va monografik planda o'rganilmagan ishlar juda ko'p. Ular xalq orasida yashab kelmoqda. Shevalarimizni o'zligimizni, qadriyatlarimizni namoyon qiluvchi o'lmas va tuganmas xazina desak mubolag'a bo'lmaydi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Maqollar bu – xalqning madaniyati, ma’rifati, madaniy saviyasi hamda qadriyatlarini o‘zida birlashtirgan, jamlagan kichik matnlardir. Xuddi shu ma’nodagi dialektal matnlar ham doim e’tiborda bo‘lgan. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘atit turk” asarida [7] ham bejizga maqollar uchramaydi. Ajdodlarimiz madaniyati, madaniy qadriyatlarini bizgacha yetkazib kelishda maqollarning o‘rni va ahamiyati kattadir.

Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha sheva vakillarining so‘zlashuvi bir-biridan go‘zal va rang-barangdir. Shuningdek, ayniqsa, Janubiy Surxondaryo sheva vakillarining so‘zlashuvi ham o‘ziga xos.

D. Polivanov klassifikatsiyasida 3-dialekt, qipchoq lahjasining beshinchi tipidagi janubiy o‘zbek “j”lovchilar guruhiga mansubligi ifodalangan. A.K.Borovkovning tasnifida Surxondaryo o‘zbek shevalari Shayboniy o‘zbek yoki “j”lovchilar dialekti deb ko‘rsatiladi. G‘ozi Olim Yunusov tasnifida “o‘zbek-qipchoq” lahjasiga kiritilgan. S.Rahimov shu tasniflarga tayanib Surxondaryo o‘zbek shevalarini quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

1. “j”lovchi o‘zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
2. “y”lovchi o‘zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar);
3. Ikki tilda so‘zlovchi shevalar [8].

Bu tasnifga 4-tur “a”lovchi yoki “o”lovchi o‘zbek shevalarini kiritsak bo‘ladi. “o(a)nor”, “o(a)hmoq”, “a(o)lma”, “xa(o)la”, “ha(o)zir” va boshqalar.

Tadqiqot davomida Mardayeva Malika Yo‘ldoshevna (1966-yil 9-avgustda tug‘ilgan. Qiziriq tumani 30-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qituvchi), Imomaliyeva Bibinor Ahmedovna (1953-yil 2-fevralda tug‘ilgan. Istara mahallasidagi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. Hozirda nafaqada), Mustafoyev Turdimurod Ismatovich (1963-yil 12-iyulda tug‘ilgan. Qiziriq tumani “Bog‘bonlar yurti” mahallasida yashaydi. “Termiz universiteti” gazetasi bosh muharriri), Mamatmurodov Mamayusuf Qurbonovich (1963-yil 7-noyabrda tug‘ilgan. Qiziriq klassterida bosh hisobchi) va boshqa sheva axborotchilaridan yozib olingan dala amaliyoti davomida bir qator muhim ma’lumotlarga ega bo‘ldik.

Qiziriq tumani vohaning janubiy hududidagi tuman bo‘lib, aholining etnik tarkibini Qo‘ng‘irot urug‘iga mansub turli daha vakillari tashkil qiladi. Hozirda tuman tarkibida 31 ta mahalla mavjud. Biz ulardan Istara, Takiya, Karmaki, So‘fi qishloq, Qishloqozon, Rabotak, Yetimqum, Gilambob, Oqjar, Xomkon, Qiziltom, Kiyik kabi qishloqlari aholisidan axborot yig‘dik. Hududiy jihatdan tuman cho‘l mintaqaga hisoblanadi. Tub aholi bu yerni ko‘chib kelib o‘zlashtirgan. “Qush uchsa

*qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadi*”gan juda issiq hudud bo‘lganligi, asli nomi “sariq” bo‘lganligi haqida dialektal suhbatlar jarayonida tuman aholisi ma’lumot berishadi.

A.Omonturdiyev va B.Rahmonovlarning hammualliflikda tuzgan “Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug‘ati”da [1] Surxondaryo viloyatining turli tumanlari aholisidan yig‘ilgan maqollar joy nomlari kesimida tartiblangan bo‘lib, Qiziriq tumanidagi xalq shevasida uchrovchi maqollar lug‘atda mavjud emas.

Professor F.Abdullayev o‘zbek shevalarini tadqiq qilishda dialektal matnlarga asoslanib ish ko‘rishni shevalar tadqiqidagi samarador usul deb biladi[4, 5]. Binobarin, dialektal matnlarning bir turi dialektal maqollar bo‘lib, har bir maqol yirik asar ma’nosini ifodalashi mumkin. Quyida berilgan dialektal maqollar xuddi shu ma’noda jamlangan va saralab olingan. Biz Qiziriq shevasi maqollarning dialektal xususiyatlarini saqlagan holda ham adabiy shaklini, ham dialektal shaklini berishga harakat qildik hamda to‘plangan maqollarni quyidagicha guruhladik:

1. Dialektal nutqdagina qo‘llanadigan maqollar.
2. Ham shevada, ham adabiy tilda qo‘llanadigan maqollar.
3. Adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma’noda qo‘llanuvchi maqollar.
4. Arxaik yoki eskirgan maqollar.

Oxirgi tur paremalarni izohlash va tavsif qilish zaruriyati mavjuddir.

#### **Shevada qo‘llanadigan maqollar**

*Otangni ko‘rdim Ahmad poriq,*

*Enangni ko‘rdim tovonni joriq.*

**Отангни ко‘рди́м Ахмад пoрíқ,**

**Эна́нгнь ко‘рди́м тово́ни жо́риқ.**

Maqolda **Эна** so‘zi ona ma’nosida kelgan. Qiziriq shevasida *ona* so‘zi *энә, онә, аya* shakllarida qo‘llanadi. “j”lovchi sheva vakillari nutqida “y” tovushi “j”ga almashinib talaffuz qilinadi.

*O‘tirgan qiz o‘rnini topar,*

*Turib-turib uyni to‘rini topar.*

**Оты́ргән қыз өрнiнь тoпәр,**

**Туры́б-туры́б уынь тогы́нь тoпәр.**

Bu maqolda *o‘rnini* so‘zi fonetik hodisaga uchragan. “r” tovushi o‘rniga ham “n” tovushi ishlatilgan - **онпiнь – o‘nnini**.

**Оты́ргән қыз** – maqolda ko‘chma ma’noda qo‘llangan. “Aqlli, ibo-hayoli, odobli qiz” ma’nosini beradi. Bundan tashqari **Оты́ргән қыз** “sabrli qiz” ma’nosini ham beradi. “O‘zbek xalq maqollari” kitobida “*O‘tirgan qiz uy topar*” shaklida berilgan. *Bolani suysang, beshikka suy.*

**Вэлэнь суysəη, beshьkkə suy.**

*Ayig ‘idi mayig ‘idi, o ‘zimni joyimidi.*

*Chaqiridi-chuquridi o ‘zimni uyimidi.*

**Ауьгьдь мəуьг‘ьдь, озьмть јəуьмьдь.**

**Chəqьгьдь-chuqьгьдь озьмть уьмьдь.**

Bu maqol kelib chiqish tarixiga ega. Qadim zamonda bir qiz toqqa borib qolib, o‘sha yerda bir ayiqqa ko‘ngil berib turmushga chiqqan ekan. Uning ota-onasi uylariga qaytarib olib kelishganda bir muddat yashab keyin shu so‘zlarni aytib chiqib ketgan ekan. Shundan buyon xalq orasida qizlar kelin bo‘lib tushgan joyida tinib-tinchib ketishi nazarda tutilib xalq orasida maqolga aylangan deyishadi. Bu maqolni “O‘zbek xalq maqollari” kitobida “O‘nqir edi, cho‘nqir edi – uyim edi, Ayiq edi, sayiq edi – erim edi” variantini uchraydi.

*Yaxshi kelin er ursa uyini to‘riga qochar,*

*Yomon kelin er ursa ko‘chaga qochar.*

**Ҳəхshь kelyн er ursa uyьнь toгьgə qəchər,**

**Ҳəтəн kelyн er ursə kochəgə qəchər.**

*Yaxshi – yaxshi deysan-u, yashab ko‘rsang bilasan.*

**Ҳəхshь – уəхshь deysən-u, уəshəb korsəη byləsən.**

*Kuyovdan o‘g‘il bo‘lmas ,*

*Kuldən loy bo‘lmas. Yoki “Куйов – (j)yov”*

**Куйəwdən og‘yl boməs ,**

**Кuldən loy boməs.**

*O‘nta o‘g‘ildan bitta choling pesh.*

**Ontə og‘yldən byttə chəlyη peř.**

*Birinchi xotin tosh xotin,*

*Ikkinchi xotin qum xotin.*

**Вьгьнць хəтьн тəř хəтьн,**

**Бккнць хəтьн qum хəтьн.**

*Katta kelin – latta kelin.*

**Кəттə kelyн - ləttə kelyн.**

*Podachining xotining poda kelar mahal g‘ayrati tutar.*

**Рəдəцьньη хəтьнньη рəдə kelar mahal g‘ayrəть tutəдь.**

Ushbu maqol ko‘chma ma‘noga ega bo‘lib faqat podachining xotiniga nisbatan aytilmagan. Aksincha, kun davomida qo‘ni-qo‘shnilarnikida o‘tirib gurung qiladigan aholi aytgandek “g”dan (g‘iybatdan) oladigan va kech bo‘lib poda qaytar vaqtida



uyiga shoshadigan ayollarga nisbatan aytilgan. Aynan *poda kelar mahal* deyilishiga sabab qishloqda quyosh botayotgan paytda poda qaytadi.

[*poda*] – *poda* – birga haydab borilayotgan yoki birga o‘tlab yurgan, odatda bir turga oid chorva mollari to‘dasi.

*Toqqa chiqmasang do‘lana qayda,*

*Xotin olmasang (erga chiqmasang) qaynana qayda.*

**Тоққа чқмасанг дөлана қайга,**

**Хотын олмасанг (эргә чһқмәсәнг) қайнана қайга.**

Ushbu maqolning adabiy tilda *Jon kuydirmasang, jonona qayda, Xotin olmasang, qaynana qayda* shakli ham mavjud.

*Ota-bolani mol ayiradi,*

*Og‘a-inini xotin ayiradi.*

**ота-балани мөл ауырәдь,**

**әг‘а-һһһһ хотын ауырәдь.**

*Kelinning oyog‘idan, cho‘ponning tayog‘idan.*

**Кельһһһ әуәг‘ьдән, чорәнһһ tayәг‘ьдән.**

Ushbu maqol kelinlarning chaqqonligiga nisbatan aytiladi. Cho‘ponning tayog‘idan deyilishi cho‘ponning tayog‘i har doim uning xamrohi ekanligi va suruvni asosan shu bilan haydashiga nisbatan aytilgan.

Birovning bor uyidan o‘zingning yo‘q uying yaxshi.

**Брәвһһ һәр ууьдән өзәуһһ уоқ ууьһ уахшь.**

*Men jezzamga kapsan dedim,*

*Jezzam menga “jebzan” dedi. Kapsan* – olingan hosildan qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlarga beriladigan ulush. *Jebzan* – “bekoringni aytibsan” ma’nosida.

**Men jәzzәmga kәpsән dedim,**

**Jәzzәm menga “jәbsән” dedi.**

*1-jadval. Ham shevada, ham adabiy tilda qo‘llanadigan maqollar*

<b>Maqol</b>	<b>Transkripsiyasi</b>	<b>Ma’nosi</b>
Odamning olasi ichida bo‘ladi	<b>әдәһһһ әләсь ьчьдә bolәdь</b>	Transformatsiyaga uchragan bo‘lib, 2-qismi <i>mol olasi tashida</i> . Ya’ni insonni yomon fikri, qora niyati ichida yashirin sirli bo‘ladi
Ot aylanib qozig‘ini topadi	<b>әт әйләһһһ қәзьг‘ьһһ tәpәdь</b>	Kim qanday bo‘lishidan qat’iy nazar vaqt o‘tishi

		bilan asliga qaytadi
Bo‘lar bola boshidan	<b>bolər bələ bəşbdən</b>	<i>Mulla bismilloidan bilanadi</i> degan ma’noda inson kelajakda yaxshi bo‘lishi bolaligidan anglashiladi
Ko‘cha xandon, uy zindon	<b>koča xandən, uy zındən</b>	kimdir ko‘chada xushnud yurgan bilan uyida dardli, g‘amga to‘la man’nosida. <b>varianti:</b> <i>Ko‘chada ko‘rgulik, uyda ko‘mgulik</i>
Yaxshi inson oshini yeydi, Yomon inson boshini yeydi	<b>уэхъь ьнсən эъьнь уеудь, Үэмən ьнсən бэъьнь уеудь</b>	Yaxshi insonga doim rag‘bat amaliga yarasha mukofot bo‘ladi, yomonga esa qilg‘iligiga munosib jazo bo‘ladi deganidir
Qari borsa, oshga borar, Yosh borsa, ishga borar	<b>qarь bərsa əşgə bərar, Үəş bərsə ьşga bərar</b>	Keksalarni xalqimiz doim e’zozlaydi, ular doim hurmatda. Yosh avlod ularning qo‘lidan ishni oladi.
Bor tovog‘im kel tovog‘im, Bormasang, kelmasang O‘rtada sin tovog‘im	<b>bər təwəg‘ьm kel təwəg‘ьm, Bərməsən, kemasən, Өrtada sьn təwəg‘ьm</b>	Oldi-berdida, ayniqsa, qiz berib, qiz olishdagi nikoh to‘ylarini ishora qiluvchi bu maqolda berilgan tortiqqa javob bo‘lishi haqida
Jeb to‘ymagan yalab to‘yama?	<b>Ҷəb təyməg‘ən yələb təyəmə?</b>	Nafsi buzuq, qorni to‘ysa ham, ko‘zi to‘ymaydiganlarga atalgan
Chiqqan qiz chig‘iriqdan tashqari	<b>Їьqqan qьz čьg‘ьrьqdan taşqarь</b>	<u>Qizlik uydan kelin bo‘lib chiqqan qizning uy-joyi bo‘lak ma’nosida.</u>

**Adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma’noda qo‘llanuvchi maqollar**

*Yo zo‘ring bo‘lsin,*

*Yo zaring bo‘lsin.*

**Үз зорғи босън,**

**Үз зәрги босън.**

Shevada *zo‘r* so‘zi o‘g‘il ma‘nosida qo‘llanadi. Shuningdek bu maqol “Kuntug‘mish” xalq dostonida “*Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo‘r yarar kuningga*” maqoli qo‘llanadi.

*Sonsizning savog‘i uzun.*

**СѐНСЪЗНЬ САВОГ‘Ь УЗУН.**

Maqolda *savog‘* so‘zi tikish uchun ignadan o‘tkaziladigan ip ma‘nosida qo‘llangan.

*El o‘g‘risiz bo‘lmas,*

*Qo‘tan bo‘risiz bo‘lmas.*

**El og‘rsъbz bѐlmѐs,**

**Qѐtѐn borъbz bѐlmѐs.**

[**Qѐtѐn**] – *qo‘ta(o)n* so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida birga boqilayotgan katta qo‘y to‘dasi; qo‘y podasi; suruv deb qayd etilgan. “O‘zbek xalq maqollari” kitobida esa *El o‘g‘risiz bo‘lmas, To‘qay – bo‘risiz* shaklida uchraydi

**To‘qay** so‘zi qamish, changal va shu kabi o‘simliklar o‘sib yotgan, odatda, zaxkash yer.

Burgaga istaz qilib ko‘rpangga olov qo‘yma.

**Burgaga ѐstaz qъlyb korpǎngǎ ѓlw qoyma.**

Maqolda [**ѐstaz**] - *istaz* so‘zi acchiq qilmoq ma‘nosida ishlatilgan bo‘lib, dialektal so‘zdir.

Qotti borgan joyga asta borsayam bo‘ladi.

**Qѓttъ bѓrgǎn jѓyga asta bѓrsa ham boladъ.**

Maqolda *qotti* so‘zi tez ma‘nosida qo‘llangan shevaga xos so‘z.

**Arxaik yoki eskirgan maqollar**

*Xon chorig‘ini unutmas.*

**Хѓн ѓргъg‘ънь unutmѐs.**

*Araz urganning oshi to(a)lli.*

**ǎrgǎz urgǎnnъng ѓshъ tѓllъ.**

*Sopi tentakning biri tentak,*

*Qopi tentakning bari tentak.*

**Сѓръ tentǎknъng bъrъ tentǎk,**

**Qѓръ tentǎknъng bѓri tentǎk.**

*Usta Mirzaqul bir ish qildi,*

*Etikni buzib, kovush qildi.*



**Ustə Mьrzəqul bir ьsh qьldь,**

**Этъкть buzьb kьvush qьldью**

*Yetti bo 'lani bir to 'bada gurki (bo 'ri) jebti.*

**Үэтть бөләнъ бьр төбәда гуркь jəbtь.**

*Chechada qolding – ko 'chada qolding.*

**Chechəda qəldьng – kəchəda qəldьng.**

Paremiologiyada aksariyat ilmiy ishlar salmog'i va istiqboli matallar, qanotli so'zlar, ibora-yu, topishmoqlar tadqiqi bilan belgilanadi.

### **XULOSA**

Xalq og'zaki durdonasi sifatida bu kabi xalq donishmandligining, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan noyob meros, keksa avlodlarning bemisl xazinasini lingvistik planda o'rganish juda ham dolzarbdir. Zotan, avlodlar almashinuvida til va madaniyat, tafakkur tarzi tamoyillarini yoritishda paremalarning ajralmas o'rni mavjud. Ayniqsa, o'zbek shevalari leksikasi bilan bir qatorda paremalarni ham leksikografik jihatdan tadqiq etish nafaqat o'zbek dialektologiyasi, balki leksikografiya, korpus lingvistikasi uchun ham g'oyat muhimdir.

### **REFERENCES**

1. Omonturdiyev A., Rahmonov B. "Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug'ati". – Toshkent, "Ilm Ziyo Zakovat", 2019.
2. Fayzullayev B., To'ychiyev A. Dialektologik amaliyot. – Jizzax, 2004.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004.
4. Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent, 1960.
5. Abdullayev F. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. – Toshkent, "Fan", 1978.
6. "Kuntug'mish" dostoni. – Toshkent, "G'afur G'ulom", 1975.
7. Mahmud Qoshg'ariy. Devon-u lug'atit turk. – Toshkent, "Fan", 1961.
8. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1985.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati, 3,4,5-jildlari. –Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2007.
10. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, "G'afur G'ulom", 1989.